

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari telefon orqali muloqot qildilar



10-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama hamkorlikning joriy masalalari va bo'lajak qo'shma tadbirlar yuzasidan fikr almashdilar.

Prezident Toqayev Qozog'iston Respublikasidagi joriy holat hamda mamlakatda vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha hukumat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot berdi.

O'zbekiston yetakchisi halok bo'lganlarning oilalariga yana bir bor hamdardlik bildirib, jabrlanganlar tezda shifo topishlarini tiladi.

Tomonlar birodar Qozog'iston zaminida tinchlik va barqarorlik tez fursatda qayta tiklanishiga ishonch bildirdilar.

Manba